

NAVOIY LIRIKASINING BADIYATI

Ilmiy rahbar: Samatov X

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

AX23-08 guruh talabasi Baxtiyorov D

Muhammad Haydar Mirzo

“Undan avval va undan keyin hech kim
turkiy tilda she`rni undan ko`proq va undan yuksakroq yozgan emas”

Annotatsiya:

Ushbu maqola mutafakkir shoir, jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi, faylasuf Nizomiddin Alisher Navoiy haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: g`azal, tuyuq ruboiy, Lisson ut-tayr, Qur`oni Karim, Naqshbandiya, ilm, Xamsa

«Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g`ururi, sha`n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o`lmas so`z san`atkoridir. Ta`bir joiz bo`lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so`zlovchi biron-bir inson yo`qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e`tiqod bilan qaramasa»¹.

U bog`da o`tirib, yoqimli, jarangdor ovozi bilan o`zi bitgan g`azalni o`qiy boshladi. Uning shunday ovozi bor ediki, bundan sarmast bo`lgan borliq ham quloq tutgandek edi. Go`yo chamanzorda xonish qilayotgan bulbul ham uning ovoziga mahliyo bo`lib xohishdan to`xtadi va so`radi:”Ey yoqimli ovoz sohibi! Sening shunday go`zal ovozing bor ekan, sen o`zinga taxallaus tanladingmi? “ –“Yo`q” deb javob beribdi u. Unday bo`lsa sen o`zinga “Navo” taxallusini ,- dediki bulbul. U uzoq o`ylabdi va o`ziga “Navoiy taxallusini tanlabdi. Ha bu ulug` zot - o`zbek adabiy tilining asoschisi buyuk so`z sa`natkori Mavlono Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari edi.

Butun umrini turkiy til mavqeyini ko`tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag`ishlagan bobokalonimiz hayoti

¹ Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma`naviyat», 2008. 47-b.



haqi dagi ma'lumotlarning deyarli barchasi saqlanib qolgan. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Chunki bunday zotlarning yashash tarzi, qilmishlari ibrat, aytmish so'zlari haqiqatdir².

Navoiy deganda, eng avvalo ko'z o'ngimizda yorqin bir siymo gavdalanadi. Biz uni o'z ko'zimiz bilan ko'rmagan bo'lsakda, u haqida juda ko'p o'qiymiz, izlanamiz. Xalqimizda Navoiyni bilmagan, u haqida eshitmagan, uning g'azalidan yod olmagan kishining o'zi bo'lmasa kerak. Chunki Navoiyni bilmaslik, o'z tiliga hurmat qilmaslik bilan barovardir. Tilimizda go'zal asarlar yaratgan buyuk adibimiz necha-necha zamonlardan buyon ulug'lanib kelingan.

Uning yaratgan asarlari, mumtoz g'azal ruboiy, qit'a, tuyuqlari har bir kishining ma'naviy oziqasini oshirishga xizmat qiladi. Chunki Navoiyning asarlarida g'ayrioddiylik, insonlarga xos mehr-oqibat, sevgi-muhabbat tuyg'ulari tarannum etilgan.

Mavlono Lutfiy³ ul hazratning endigina unib-o'sib borayotgan va yaxshi-yomonni ajratib boshlayotgan [o'spirinlik] chog'larida kunlardan bir kuni uning huzuriga borib, undan: – Biror g'azal o'qib berish orqali o'z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan meni bahramand eting, – deb iltimos qildi. Ul hazrat matla'i quyidagicha bo'lgan bir g'azalni o'qib berdi. She'r:

Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.

Janob Mavlaviy bu ajoyib g'azalni eshitib, hayrat dengiziga g'arq bo'ldi va uning tiliga shunday so'zlar keldi: – Xudoga qasam ichib aytamanki, agar iloji bo'lganida edi, o'zinning o'n-o'n ikki ming baytdan iborat bo'lgan turkiy va forsiy g'azallarimni birgina ushbu g'azalga almashtirgan va ushbu ayirboshlash natijasini katta muvaffaqiyat deb hisoblagan bo'lardim.

Jomiy hazratlari ham Navoiyning asarlariga tan berib: “Yaxshiyamki Navoiyning asarlari turk tilida, agar ular fors tilida bo'lganda, bizning asarlarni hech kim o'qimagan bo'lar edi”,- deb aytgan o'tkanlar.

Buyuk zotlarning Navoiyga bu qadar uning qanchalik bebaho ekanligi yorqin isbotidir. Biz Alisher Navoiy nomini ulug'laymiz ko'klarga ko'taramiz. U buyuk zot bo'lsa ham, aslida kamtarin, oqko'ngil, xalqparvar, oliyjanob inson bo'lganlar.

² «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent – 2017

³ Mavlono Lutfiy (1366–1465) – hirotlik o'zbek shoiri, orif va mutafakkir, o'z zamonasining «malik ul-kalom»i.



Navoiy ham fors, ham tojik tillarida ijod etgan. Uning yaratgan boy merosi o`zbek xazinasini dur-u javohirlaridir.

Hayot shunday narsaki, unda yaxshi inson ham, yomon inson ham dunyoga keladi va unit tark etadi. Faqat yaxshi insondan yaxshilik to`la xotira qoladi. Navoiyning o`limi ham zamondoshlari uchun og`ir musibatga aylandi.

O`limidan har bir uyga tushdi motam,
Mamlakatning har burchidan chiqdi fig`on.
Temiryurak toshyurakli kishilarham
Bu dahshatli musibatdan yutdilar qon.

Biz Alisher Navoiyni buyuk shoir va mutafakkir sifatida bilamiz va ulug`laymiz. Shoir so`zi hammaga ma`lum va tushunarli lekin mutafakkir so`zi-chi? Nima uchun biz bu so`zni hazrat Navoiyga nisbatan alohida ta`kid bilan qo`llaymiz?! O`zbek tilining izohli lug`atiga tayanib, bu so`zga quyidagicha ta`rif berish mumkin: Mutafakkir-arabcha so`z bo`lib, "o`zbek" tilida fikr yurituvchi "fikrlovchi", "o`ylovchi" ma`nolarini beradi. Boshqacha qilib aytganda, chuqur falsafiy fikrlash iste`dodiga ega bo`lgan kishi, tafakkur egasi. Bu qobiliyat hammaga ham nasib etavermaydi. Binobarin dunyoda juda oz yozuvchi va shoir ulug` loyiq topilgan. Buyuk shoir davlat arbobi, o`zbek adabiy tili rivojiga katta hissa qo`shgan Alisher Navoiy esa bu unvonga sharaf bilan sazovor bo`lgan. Navoiy qoldirgan merosni hikmat to`la dengizga o`xshatish mumkin.

Alisher Navoiy lirikasi o`rta asrlarda o`zbek lirikasi o`rta asrlarda o`zbek lirikasining eng yuksak bosqichni tashkil qiladi. Ulug` shoir o`zigacha rivojlanib kelgan lirik she`riyatni g`oya vazn va badiiy uslub jihatlarini ulkan mehnat va mahorat bilan misli ko`rilmagan darajada takomillashtiradi.

"Bir kuni hidoyat nasabli Amir asr namozini o`qigandan so`ng, har kunlik odatiga xilof ravishda, jamoat namoziga kelmagan kishilarni surishtirishga kirishmasdan, shosha-pisha o`zlarining shaxsiy bog`chalari tomon yo`l oldilar va unchalik vaqt o`tmasdan, tezda qaytib keldilar. Bundan ul hazratning xizmatida bo`lgan mulozimlardan ayrimlari hayron bo`ldilar. Ul hazrat bu holatni tushunib, o`zidan gavharlar sochuvchi tillari bilan quyidagi so`zlarni aytdilar: – Masjidga kelayotgan chog`imda falon joyda to`xtab, tahorat qilgan edim. [Namoz chog`ida] jamoat [bo`lib namoz o`quvchilar] safida turganimda yelkamga yopishib olgan bir chumolini ko`rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib olgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga boradigan yo`lni



topolmay qolsa, uvoliga qolamanmi, deb qo‘rqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan so‘ng shosha-pisha o‘sha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni o‘z uyasi oldiga qo‘yib yubordim va ko‘nglimni (o‘zim bilmagan holda Xudoning bir jonivoriga) jabr-zulm qilib qo‘yish xavotiridan xalos qildim. Ul hazratning xizmatkorlari bu hikoyatni eshitib, uning benihoya rahmdilligidan hayrat dengiziga g‘arq bo‘lishdi hamda tillariga (ul hazratning haqlariga) duo-yu hamd-u sanolar keltirishdi”⁴.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singan bo‘lsada, “Lisson ut-tayr”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Munojot” singari asarlarida aks etgan tasavvufiy g‘oya, insoniylik mohiyati haqidagi qarashlar go‘zal badiiy libosda berilgan. Bu badiiylikni ta‘minlagan muhim omillardan biri, dostonidagi badiiy-tasviriy vositalardir. Adabiyotni ma‘naviyat xazinasi deb ta‘riflashadi. Darhaqiqat, uning bag‘rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq hislar latif tuyg‘ular – insonparvarlik, adolat, shafqat va o‘zaro hamjihatlik, do‘stlik mehr va muruvvat, sevgi va muhabbat, go‘zalikka tashnalik jamuljamdir.

Ma‘lumki shoir asarlardagi barcha g‘oyalar muqaddas Qur‘oni Karim va hadislar mazmuni bilan chambarchas bog‘liqdir. Islom dinining ustun hisoblanmish bu ikki buyuk manbani chuqur bilmasdan, tushunmasdan turib Navoiy asarlarini tadqiq etish ham, talqin qilish ham va mutafakkir shoir olamni anglash ham mushkul. Navoiy o‘z davrida ustoz Abdurahmon Jomiyning pir tutib, o‘zini Naqshbandiya tariqatiga mansub hisoblagan. Shuning uchun ham shoir ruhiyatida kechgan g‘alayon, hissiyotlar va u ilgari surgan fikrlar ayni shu jihatlarga aloqadordir. Demak, Alisher Navoiy g‘oyalarini tushunish va tushuntirish uchun tasavvufni aynan naqshbandiya tariqatining shartlari, talablarini chuqur bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy ijodining cho‘qqis bo‘lmish “Xamsa” asari qahramonlari asrlar davomida necha-necha avlodlar uchun ma‘naviyat va odobda, odamiylik va jasoratda, xalqparlik va saxovatda o‘rnak bo‘lib keladigan yorqin badiiy siymolar bo‘ldi. Farhod va Qays, Suhayl va Sa‘d, Ahiy va Farrux kabi betakror qiyofalar, Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqa ma‘naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asridan boshlab hanuzgacha oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda.

⁴ Alisher Navoiyning «Makorim ul-axloq» asaridan parcha



Shuni alohida ta`kidlash joizki, Alisher Navoiy o`z dostonlariga yuqori baho berar ekan, har bir asar muqaddimasida, ulardagi jiddiy nuqsonlarni ham alohida ta`kidlab o`tib ushbu kamchiliklarni keskin tuzatish yo`lini qo`llaydi. Masalan, Bahrom o`z malikasiga nomunosib ishlar buyurgani haqida to`xtalib, chinakam muhabbat tasviridan xoli bu asarga har ikki ijodkor xatolarini shunday deya alohida ta`kidlagan edi.

“Boyla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilganlar o`zlarin vassof.
Madhini behisob yozgaylar,
Balki mavzun kitob yozgaylar.

Navoiy, ayniqsa, o`zi yaratgan qahramonlarining ichki dunyosini, ruhiyatini to`laqonli aks ettiradi. Farhodning Salosil qal`asidagi kechinmalari Majnunning dasht va sahroda chekkan iztiroblari, Ka`ba huzuridagi nolishlari Laylining alamli dil so`zlari, Iskandarning onasiga maktubi kabi o`nlab tasvirlarda qalb kechinmalarining dardli ifodali g`oyat ta`sirchan ifodalanganligi ko`zga yoqqol tashlanib turadi

Navoiy nazdida oshiq shoh-u uning ma`shuqi gado bo`lish mumkin. Insonparvar shoir bundan hech bir nomuvofiq tengsizlik, ayb ko`rmaydi. Zotan, Navoiy nazmidagi gado obrazi bizning bugungi tasavvurimizdagi tilanchi emas, balki sofdil, halol, xokisor, mag`rur, adolatpesha, oliyhimmat oddiy inson. Shuning uchun podshoning shunday insonga muhabbat qo`yishi, Navoiy naznida faqatgina insoniy tenglik emas, kata-katta iltimoiy- siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Inson qalbining quvonch-u qayg`usini ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek terar ifoda ifoda etgan shoir jahon adabiyotida kamdan-kam topiladi.

Zamondoshi Hakimshoh Qazvininy: “Hech kim turkey she`rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan”,- deb ta`riflasi, yana bir ulug` shaxs Husayn Boyqaro: “Aning nazni vafida til qosir va bayon ojiz erur “, -deya ta`kidlaydi.

“Bu ulug` amir di-u davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir”- degan Davlatshoh Samarqandiyning ham aytganlarini bilishimiz mumkin.

Buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyni bugun butun dunyo e`tirof etadi, -deydi O`zbekiston xalq artisti Yoqub Ahmedov



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida Alisher Navoiy haqida shunday deyilgan: «Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»⁵

Buyuk mutafakkir bobomizning eng muhim maqsadi inson ko`nglini obod etishdir:

Kimki bir ko`ngli buzuvning xotirin shod aylagay

Oncha borkim, Ka`ba vayron bo`lsa obod aylagay.

Ushbu maqola Navoiyning yaratgan asarlari har birimizni tog`ri yo`lga chorlashdan iborat ko`rsatkichi bo`lsa ajab emas. U zotning siymosi mangu barhayotdir. Ulug` shoir va mutafakkir Alisher Navoiy dunyo adabiyoti tarixida tengi topilmas bir siymo hisoblanadi. Iste`dodining teranligi jihatidan ham, xalqparvar davlat arbobi sifatida jamiyatda tutgan o`rni ham, adabiyot ahliga ko`rsatgan homiyligi jihatidan ham o`xshashi yoq siymodir. Navoiy xotirasi esa har kuni, har daqiqa yuragimizda tarix bo`lib yashaydi, yashayveradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat
2. Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent – 2017
3. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312 b.
4. Adabiyot [Matn] 11-sinf: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

VEB SAYTLAR:

1. <https://oz.sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html>
2. https://medium.com/@blog_62129/qiziqarli-biografiya-alisher-navoiy-25601bd9ec93
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/oybek-1905-1968/oybek-bola-alisher-qissa?ysclid=lqf51x8fb2912682958>

⁵ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.



ILMIY MAQOLALAR

- 1 Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
- 2 Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
- 3 Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
- 4 Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
- 5 Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
- 6 Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
- 7 Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
- 8 Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
- 9 Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.